| Sport maktablarida 12–14 yoshli gandbolchilarda to'pni ilish va<br>uzatish texnikasini takomillashtirish metodikasini ishlab chiqish .....                          | 285 |
| <b>Ismatullayeva Fotima Rustam qizi</b>                                                                                                                             |     |



|                                                                                                                                                                                                     |     |
|-----------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------|-----|
| Методология изучения этнопсихологических аспектов понимания долга перед родителями:<br>цели, задачи и гипотезы исследования .....                                                                   | 289 |
| <b>Эргашев П. С., Азимова Х. А.</b>                                                                                                                                                                 |     |
| Uzluksiz ta'lim tizimida metakompetensiyalarni rivojlantirish strategiyalari va ularning tasnifi .....                                                                                              | 292 |
| <b>Xurramov Anvar Jumanazarovich</b>                                                                                                                                                                |     |
| Fundirlash konsepsiyasi – kelajak pedagoglarining asosiy poydevori .....                                                                                                                            | 296 |
| <b>G'oyimov Umar Eshmurodovich</b>                                                                                                                                                                  |     |
| Pedagogik oliy ta'lim muassasalarida qo'llanilayotgan metodik ta'minotning<br>hozirgi holati: tahliliy o'rganish .....                                                                              | 301 |
| <b>Xujamkulova Nafisa Ruzikulovna</b>                                                                                                                                                               |     |
| Pedagogik metod: intellekt xaritalar yordamida lazerlarning amaliyotda<br>qo'llanilish sohalarini vizuallashtirish .....                                                                            | 307 |
| <b>Olimjonova Nigina Sobirjon qizi</b>                                                                                                                                                              |     |
| Maktabgacha ta'lim tashkiloti guruhlarida rivojlanish markazlarini tashkil etish .....                                                                                                              | 312 |
| <b>G. R. Ibragimova, Normamatova Rayhona Alisher qizi</b>                                                                                                                                           |     |
| Pedagogik o'yinlar va interaktiv faoliyatlarning ta'lim jarayonidagi o'rni .....                                                                                                                    | 317 |
| <b>Qodirova Sevara Shuxratovna</b>                                                                                                                                                                  |     |
| Shaxs psixikasi rivojlanishiga ta'sir etuvchi omillar .....                                                                                                                                         | 325 |
| <b>Boboyeva Maxsuda Ataxonovna, Rajapboyeva Ozoda Shuxrat qizi, Karimova Malohat O'rinboy qizi</b>                                                                                                  |     |
| Jismoniy tarbiya darslarida innovatsion pedagogik texnologiyalardan<br>foydalanishning sifat samaradorligi .....                                                                                    | 329 |
| <b>Hasanova Dilnora Rustam qizi, Ehnazarov Jo'raqul</b>                                                                                                                                             |     |
| Integratsion yondashuv asosida bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarining<br>kasbiy sifatlarini shakllantirishning metodik tizimi .....                                                          | 333 |
| <b>Boynazarova Munajat</b>                                                                                                                                                                          |     |
| O'yin faoliyati orqali kasbga yo'naltirish mexanizmlari .....                                                                                                                                       | 337 |
| <b>Allaberdiyeva Kumri Xamrayevna, Toshmurodova Marjona</b>                                                                                                                                         |     |
| Модель методического сопровождения педагогов доо в развитии математической грамотности<br>и логического мышления старших дошкольников на основе игровых технологий .....                            | 340 |
| <b>Гаухар Джанпеисова</b>                                                                                                                                                                           |     |
| Bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarining baholash malakasini rivojlantirish<br>muammolari va imkoniyatlari .....                                                                               | 347 |
| <b>Majidova Hilola Eshquvat qizi</b>                                                                                                                                                                |     |
| Формирование коммуникативной компетенции студентов на занятиях узбекского и<br>иностранных языков: интегративный подход .....                                                                       | 351 |
| <b>Турланова Сауле Дадажановна</b>                                                                                                                                                                  |     |
| Ta'lim jarayonida digital storytelling metodidan foydalanish orqali o'quvchilarning<br>ijodiy yozuv kompetensiyasini shakllantirish .....                                                           | 357 |
| <b>Maxsetova Zuxra Torebayevna</b>                                                                                                                                                                  |     |
| Futbol mashg'ulotlarida kreativ yondashuvlarni qo'llash amaliyoti .....                                                                                                                             | 361 |
| <b>Karimov Odiljon Baxadirovich</b>                                                                                                                                                                 |     |
| Oliy ta'limda talabalarining kreativligini rivojlantirishda sun'iy intellektdan foydalanishning<br>nazariy-metodologik asoslari (amaliy matematika yo'nalishi misolida) .....                       | 364 |
| <b>Samatova Munira Dilshod qizi</b>                                                                                                                                                                 |     |
| Подготовка к школе как условие развития коммуникативных умений у детей<br>дошкольного возраста с тяжёлыми нарушениями речи .....                                                                    | 368 |
| <b>Ахмедова З. М., Абдурахмонова М. А.</b>                                                                                                                                                          |     |
| Boshlang'ich sinf o'quvchilarini rivojlantiruvchi ta'limni amalga oshirishga talaba<br>motivatsiyaviy-qadriyatli munosabatlari tizimi shakllanganligi darajalari va ularning sifatiiy tavsifi ..... | 373 |
| <b>Ergasheva Matluba Burxonovna</b>                                                                                                                                                                 |     |
| Ritmik va ijodiy gimnastika mashqlari orqali bolalarda estetik didni shakllantirish metodlari .....                                                                                                 | 378 |
| <b>Kamchiyev Salimberdi Xudayberdiyevich</b>                                                                                                                                                        |     |

|                                                                                                                                               |     |
|-----------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------|-----|
| Interaktiv ta'lim platformalari asosida informatika va axborot texnologiyalari faniga oid kompetensiyalarni rivojlantirish samaradorligi..... | 382 |
| <b>Karimov Feruz Raimovich</b>                                                                                                                |     |
| Koxlear implantli bolalar og'zaki nutqini shakllantirishda qo'llaniladigan zamonaviy usullar .....                                            | 386 |
| <b>Mamasiddikova Maftuna Akbarjon qizi</b>                                                                                                    |     |
| Bo'lajak ingliz tili o'qituvchilarining media savodxonligini oshirishning zamonaviy pedagogik texnologiyalari.....                            | 389 |
| <b>Masharibova Lobar Rayimberganovna</b>                                                                                                      |     |
| Duduqlanuvchi bolalarda verbal muloqot ko'nikmalarini o'yin texnologiyalari asosida rivojlantirish.....                                       | 393 |
| <b>Mirtoeva Shohruza Ibjohimjon qizi</b>                                                                                                      |     |
| Maktab voleybol sport to'garaklari mashg'ulotlarida harakatli o'yinlardan foydalanish .....                                                   | 396 |
| <b>Ortug'mat Jumanov, Zarina Abdusattarova</b>                                                                                                |     |
| Talabalar mustaqil ta'limini samarali tashkil etish omillari va mexanizmlari.....                                                             | 400 |
| <b>Raxmatova Nargiza Dolibayevna</b>                                                                                                          |     |
| Bola nutqining rivojlanishiga ta'sir ko'rsatuvchi salbiy va ijobiy muhit omillari. XXI asr taraqqiyotida nutq faoliyatining shakllanishi..... | 403 |
| <b>Ro'ziyeva Nozimaxon Oybek qizi</b>                                                                                                         |     |
| Maktabgacha ta'lim tashkilotlari tarbiyalanuvchilarining ijodkorligini ijtimoiy-pedagogik faoliyatda rivojlantirish texnologiyasi.....        | 406 |
| <b>Sadikova Dilafuz Xusanovna, Butayeva Gavhar Xudoyorovna</b>                                                                                |     |
| Fan va tabiatni tanishtirish orqali maktabgacha katta yoshdagi bolalarni rivojlantirish usullari .....                                        | 410 |
| <b>Sh. T. Musulmonova</b>                                                                                                                     |     |
| 15-17 yoshgacha bo'lgan kurashchilarni yillik yuklamalarini taqsimlash .....                                                                  | 413 |
| <b>Qirgiboyev Shaxbozbek Aslidin o'gli, Xamidjonov Muhammadbobir Ulug'bek o'gli</b>                                                           |     |
| Davlat boshqaruvi tizimida korrupsiyaviy xavf-xatarlarni baholash va prognozlash metodologiyasi.....                                          | 416 |
| <b>Sotvoldiyev Akbarjon Umidjon o'g'li</b>                                                                                                    |     |
| O'smirlar orasida tengdoshlar bosimi va uning psixologik ta'siri .....                                                                        | 419 |
| <b>Toshpo'latova O'giloy Baxtiyor qizi</b>                                                                                                    |     |
| Boshlang'ich ta'limda o'quvchilarni shaxsiy rivojlantirish.....                                                                               | 422 |
| <b>Turdiyeva Raxima Kurbanovna</b>                                                                                                            |     |
| Matnli topshiriqlar vositasida ona tili darslarida o'quvchilarning kreativ tafakkurini rivojlantirish .....                                   | 426 |
| <b>Yulbarsov Ochilbek Obidjon o'g'li, Isayeva Gulnur Shakirjanovna</b>                                                                        |     |
| Методы исследования сенсомоторных эффектов и внимания у детей дошкольного возраста.....                                                       | 432 |
| <b>Г. С. Алиходжаева</b>                                                                                                                      |     |
| Роль театрализованной деятельности в формировании представлений о родине у дошкольников ..                                                    | 436 |
| <b>Г. С. Алиходжаева, У. О. Мамадалиева</b>                                                                                                   |     |
| Логическое мышление детей 5–7 лет в вариативном дошкольном образовании: нормативные основания и концептуальная модель .....                   | 440 |
| <b>Г. Э. Джанпеисова, В. В. Горбунова, Э. З. Убайдуллаева</b>                                                                                 |     |
| O'qitishning maqsad va vazifalarini talabalarning bo'lajak pedagogik faoliyatini modellashtirish sifatida ...                                 | 444 |
| <b>Murodova Umida Dilmurodovna</b>                                                                                                            |     |
| Развитие прагматической компетенции аудирования с помощью инновационных технологий в обучении немецкому языку .....                           | 449 |
| <b>Саидова Махсудахон Аббасовна</b>                                                                                                           |     |
| Развитие профессиональной подготовки будущих воспитателей в системе высшего педагогического образования.....                                  | 452 |
| <b>Собирова Пошшаой Эркин кизи</b>                                                                                                            |     |
| Современные педагогические концепции и структурные элементы игровых технологий.....                                                           | 455 |
| <b>Хафизова Машхура Аминовна</b>                                                                                                              |     |



# O'SMIRLAR ORASIDA TENGDOSHLAR BOSIMI VA UNING PSIXOLOGIK TA'SIRI

Toshpo'latova O'g'iloy Baxtiyor qizi  
Termiz davlat universiteti

Ilmiy rahbar: Sattorova Maxliyo

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada o'smirlar davrida tengdoshlar bosimi (peer pressure) tushunchasi, uning psixologik mohiyati hamda o'smir shaxsining shakllanishiga ko'rsatadigan ijobiy va salbiy ta'sirlari tahlil qilinadi. Shuningdek, tengdoshlar bosimining kelib chiqish omillari, oila va ta'lim muassasalarining roli hamda zamonaviy ijtimoiy tarmoqlarning ta'siri yoritiladi. Maqolada o'smirlarning mustaqil fikrlashini rivojlantirish, o'ziga ishonchni shakllantirish va salbiy bosimlardan himoyalash yo'llari bo'yicha tavsiyalar beriladi.

**Kalit so'zlar:** o'smirlar davri, tengdoshlar bosimi, psixologiya, shaxs rivoji, ijtimoiy muhit, o'ziga ishonch, ijtimoiy tarmoqlar.

**Abstract:** This article analyzes the concept of peer pressure during adolescence, its psychological essence, and its positive and negative effects on the formation of an adolescent's personality. It also examines the factors that cause peer pressure, the role of family and educational institutions, and the influence of modern social networks. The article provides recommendations on developing independent thinking, building self-confidence, and protecting adolescents from negative peer influence.

**Key words:** adolescence, peer pressure, psychology, personality development, social environment, self-confidence, social networks.

**Аннотация:** В данной статье анализируется понятие давления сверстников в подростковом возрасте, его психологическая сущность, а также положительное и отрицательное влияние на формирование личности подростка. Рассматриваются факторы возникновения давления сверстников, роль семьи и образовательных учреждений, а также влияние современных социальных сетей. В статье приводятся рекомендации по развитию самостоятельного мышления, формированию уверенности в себе и защите подростков от негативного влияния сверстников.

**Ключевые слова:** подростковый возраст, давление сверстников, психология, развитие личности, социальная среда, уверенность в себе, социальные сети.

## KIRISH

O'smirlar davri inson hayotidagi eng murakkab va o'zgaruvchan bosqichlardan biri hisoblanadi. Bu davrda shaxsning dunyoqarashi, qiziqishlari, qadriyatlari va xulq-atvori shakllanadi. Aynan shu jarayonda tengdoshlar – ya'ni bir yoshdagi do'stlar va sinfdoshlar – o'smir hayotida muhim o'rin egallaydi. Tengdoshlar bilan muloqot qilish ehtiyoji kuchayib, ularning fikri ko'pincha ota-ona yoki o'qituvchi fikridan ham ustun bo'lib qolishi mumkin. Natijada tengdoshlar bosimi yuzaga keladi. O'smirlar davri inson hayotidagi eng muhim va murakkab bosqichlardan biri bo'lib, odatda 11-12 yoshdan 16-17 yoshgacha bo'lgan davrni o'z ichiga oladi. Bu davrda nafaqat jismoniy, balki psixologik va ijtimoiy o'zgarishlar ham jadal kechadi. O'smir o'z "men"ini anglashga, jamiyatda o'z o'rnini topishga va mustaqil qaror qabul qilishga intila boshlaydi. Shu sababli u atrof-muhit ta'siriga, ayniqsa tengdoshlarining fikriga sezgir bo'lib qoladi.

Bugungi globallashtirish va raqamli texnologiyalar rivojlangan davrda o'smirlarning muloqot doirasi yanada kengaydi. Ijtimoiy tarmoqlar, onlayn o'yinlar va virtual guruhlar ham tengdoshlar ta'sirining kuchayishiga sabab bo'lmoqda. Natijada o'smir real hayotdagi do'stlari bilan bir qatorda virtual muhitdagi tengdoshlar bosimini ham his etadi. Bu esa uning qadriyatlari, qiziqishlari va xulq-atvoriga sezilarli darajada ta'sir ko'rsatishi mumkin. Shu nuqtai nazardan, tengdoshlar bosimini o'rganish nafaqat psixologlar, balki pedagoglar va ota-onalar uchun ham muhim hisoblanadi. Chunki o'smirning to'g'ri yo'nalishda shakllanishi, sog'lom ijtimoiy muhitda ulg'ayishi va mustaqil fikr yurita olishi ko'p jihatdan uning atrofidagi tengdoshlar bilan munosabatiga bog'liqdir.

## TAHLIL VA NATIJALAR

Tengdoshlar bosimi – bu o'smirning o'z do'stlari yoki jamoasi ta'sirida ma'lum xatti-harakatlarni bajarishga, qaror qabul qilishga yoki muayyan qadriyatlarni qabul qilishga majbur bo'lish holatidir. Bu bosim ochiq (to'g'ridan-to'g'ri majburlash) yoki yashirin (moslashish istagi, uyatdan qo'rqish) shaklda namoyon bo'lishi mumkin. Tengdoshlar bosimi o'smirning o'z do'stlari yoki jamoasi ta'sirida ma'lum xatti-harakatni bajarishga majbur bo'lishi yoki ularga moslashishga intilishidir. Bu bosim ochiq shaklda, ya'ni to'g'ridan-to'g'ri undash orqali bo'lishi mumkin yoki yashirin tarzda – uyat, qo'rquv, guruhdan ajralib qolish hissi orqali namoyon bo'ladi. O'smirlik davrida shaxs o'z “Men”ini anglashga harakat qiladi. U boshqalarning fikriga sezgir bo'ladi, ayniqsa tengdoshlarining bahosi uning o'ziga bo'lgan ishonchiga kuchli ta'sir ko'rsatadi. Shu sababli o'smirlar ko'pincha guruh tomonidan qabul qilinish uchun o'z qarashlari yoki xatti-harakatlarini o'zgartirishi mumkin.

Tengdoshlar bosimining ijobiy tomonlari ham mavjud. Masalan, yaxshi o'qishga intilish, sport bilan shug'ullanish, ijtimoiy faollikni oshirish kabi holatlarda tengdoshlar o'smir uchun motivatsiya manbai bo'la oladi. Bunday muhit o'smirning o'z ustida ishlashiga, maqsad sari intilishiga yordam beradi. Biroq salbiy tengdoshlar bosimi ham keng uchraydi. Bu zararli odatlarga berilish, dars qoldirish, tajovuzkorlik, internetga qaramlik kabi ko'rinishlarda namoyon bo'lishi mumkin. Salbiy bosim o'smir ruhiyatiga salbiy ta'sir qilib, o'ziga bo'lgan ishonchni pasaytiradi va noto'g'ri qarorlar qabul qilishga olib keladi.

Bu jarayonda oila va maktabning roli nihoyatda muhimdir. Ota-onaning mehr-e'tibori, ochiq muloqoti va qo'llab-quvvatlashi o'smirni ko'plab salbiy ta'sirlardan himoya qiladi. Maktabdagi sog'lom muhit, o'qituvchi va psixologlarning maslahatlari esa o'smirning to'g'ri yo'nalishda rivojlanishiga yordam beradi.

**1. Ijobiy tengdoshlar bosimi** – Har doim ham tengdoshlar bosimi salbiy bo'lavermaydi. Ba'zi hollarda u o'smirni rivojlanishga undaydi:

- 1) sport yoki fan to'garaklariga qatnashishga rag'batlantiradi;
- 2) o'qishga bo'lgan qiziqishni oshiradi;
- 3) ijtimoiy faollikni kuchaytiradi;
- 4) sog'lom turmush tarzini shakllantirishga yordam beradi.

Bunday vaziyatlarda tengdoshlar o'smir uchun motivator vazifasini bajaradi.

**2. Salbiy tengdoshlar bosimi** – Salbiy tengdoshlar bosimi esa o'smir psixikasiga va xulqiga zarar yetkazishi mumkin. U quyidagi ko'rinishlarda namoyon bo'ladi:

- 1) zararli odatlarga (chekish, ichkilik, giyohvandlik) undash;
- 2) dars qoldirish yoki tartib buzishga moyillik;
- 3) agressiv xatti-harakatlar;
- 4) internet va ijtimoiy tarmoqlarga haddan tashqari qaramlik.

Bunday bosim o'smirning o'ziga bahosini pasaytiradi, mustaqil fikrlashini susaytiradi va ruhiy zo'riqishga olib kelishi mumkin.

**Oila va maktabning roli.** Oila muhitidagi iliqlik, qo'llab-quvvatlash va ochiq muloqot o'smirni salbiy bosimdan himoyalovchi asosiy omillardandir. Maktab esa ijtimoiylashuvning muhim maydoni bo'lib, pedagoglar va psixologlar o'smirlarning o'ziga ishonchini oshirishda katta rol o'ynaydi. Agar o'smir o'z fikrini erkin bildira olsa va qo'llab-quvvatlashni his qilsa, tengdoshlar bosimiga kamroq beriladi.

**Tengdoshlar bosimining psixologik ta'siri.** Tengdoshlar bosimi o'smir ruhiyatiga bevosita va bilvosita ta'sir ko'rsatadi. O'smirlik davrida shaxsning hissiy barqarorligi hali to'liq shakllanmagan bo'ladi, shu sababli tashqi ta'sirlar kuchliroq seziladi. Quyida tengdoshlar bosimining asosiy psixologik ta'sirlari keltiriladi:

- 1) o'ziga baho va o'ziga ishonchga ta'siri – agar o'smir doimiy ravishda tengdoshlarining tanqidi yoki rad etishiga duch kelsa, uning o'ziga bo'lgan ishonchi pasayadi. Aksincha, qo'llab-quvvatlovchi muhit o'ziga ijobiy baho shakllanishiga yordam beradi;
- 2) identitet (shaxsiylik) shakllanishi – o'smir “Men kimman?” degan savolga javob izlaydi. Tengdoshlar fikri va qadriyatlari uning shaxsiy qarashlariga ta'sir qilib, identitet shakllanish jarayonini tezlashtirishi yoki buzishi mumkin;
- 3) emotsional holatga ta'siri – salbiy bosim xavotir, qo'rquv, tushkunlik va ichki ziddiyatlarni keltirib chiqaradi. O'smir guruhdan ajralib qolishdan qo'rqib, ichki stressni boshdan kechiradi;



- 4) qaror qabul qilish jarayoni – tengdoshlar ta'siri ostida o'smir mantiqiy emas, balki hissiy qarorlar qabul qilishi mumkin. Bu esa xavfli yoki o'ylamasdan qilingan xatti-harakatlarga olib keladi;
- 5) xulq-atvoriga ta'siri – o'smir o'z tengdoshlariga moslashish uchun kiyinish uslubi, so'zlashuvi va xatti-harakatlarini o'zgartiradi. Ba'zan bu ijobiy rivojlanishga, ba'zan esa salbiy odatlarga sabab bo'ladi;
- 6) mustaqillik darajasi – doimiy bosim ostida qolgan o'smir mustaqil fikrlash qobiliyatini yo'qotishi mumkin, ammo sog'lom muhitda tengdoshlar muloqoti ijtimoiy ko'nikmalarni rivojlantiradi.

**Himoyalaniish va profilaktika yo'llari.** Tengdoshlar bosimining salbiy oqibatlarini kamaytirish uchun quyidagi choralar muhim:

- 1) o'smirda "yo'q" deyish ko'nikmasini shakllantirish;
- 2) o'ziga ishonchni rivojlantirish;
- 3) sog'lom do'stlar davrasini tanlash;
- 4) ota-ona va o'qituvchilar bilan ochiq suhbatlar olib borish;
- 5) vaqtni mazmunli mashg'ulotlar bilan band qilish.

## XULOSA

Xulosa qilib aytganda, o'smirlik davrida tengdoshlar bosimi shaxs rivojiga kuchli ta'sir ko'rsatuvchi muhim ijtimoiy-psixologik omillardan biridir. Bu jarayon o'smirning dunyoqarashi, xulq-atvori va qaror qabul qilishiga bevosita ta'sir etadi. Tengdoshlar ta'siri ijobiy yo'nalishda bo'lsa, o'smirni bilim olishga, sport va ijodga qiziqishga hamda ijtimoiy faollikka undaydi. Aksincha, salbiy muhit esa zararli odatlar, ishonchsizlik va noto'g'ri tanlovlarga olib kelishi mumkin. Shu sababli o'smirda mustaqil fikrlash, o'ziga ishonch va "yo'q" deya olish ko'nikmalarini shakllantirish muhim ahamiyatga ega. Oila, maktab va jamiyatning hamkorligi, sog'lom muloqot muhiti hamda to'g'ri yo'naltirish orqali tengdoshlar bosimining salbiy oqibatlarini kamaytirish mumkin. Natijada o'smir o'z imkoniyatlarini anglaydigan, ongli qaror qabul qila oladigan va ijtimoiy hayotda faol ishtirok etadigan barkamol shaxs sifatida shakllanadi. Tengdoshlar bosimi o'smirlik davrining ajralmas qismi bo'lib, u shaxs rivojiga ham ijobiy, ham salbiy ta'sir ko'rsatishi mumkin. Eng muhim vazifa – o'smirda mustaqil fikrlash, o'ziga ishonch va to'g'ri qaror qabul qilish ko'nikmalarini shakllantirishdir. Shundagina u turli bosimlarga bardosh bera oladigan, ongli va ijtimoiy faol shaxs bo'lib voyaga yetadi.

### Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Karimova V.M. Psixologiya. – Toshkent: O'qituvchi nashriyoti.
2. G'oziyev E.G'. Umumiy psixologiya. – Toshkent: Universitet nashriyoti.
3. Davletshin M.G. Yosh davrlari va pedagogik psixologiya. – Toshkent.
4. Rajabov A. O'smirlar psixologiyasi. – Toshkent: Fan nashriyoti.
5. Yo'ldoshev J. Pedagogik psixologiya asoslari. – Toshkent.
6. Nishonova Z.T. Rivojlanish psixologiyasi. – Toshkent.
7. Abduqodirov A. Shaxs psixologiyasi. – Toshkent.
8. Vygotsky L.S. Mind in Society. – Harvard University Press.
9. Piaget J. The Psychology of the Child. – Basic Books.
10. Erikson E.H. Identity: Youth and Crisis. – W.W. Norton & Company.
11. Santrock J.W. Adolescence. – McGraw-Hill Education.
12. Steinberg L. Adolescence. – McGraw-Hill Education.
13. Brown B.B. Peer Groups and Peer Pressure in Adolescence. – Harvard University Press.
14. Bandura A. Social Learning Theory. – Prentice Hall.
15. Coleman J.C. The Nature of Adolescence. – Routledge.
16. Hurlock E.B. Developmental Psychology. – McGraw-Hill.
17. Papalia D.E., Olds S.W. Human Development. – McGraw-Hill.
18. Feldman R.S. Development Across the Life Span. – Pearson Education.
19. Arnett J.J. Adolescence and Emerging Adulthood. – Pearson.
20. Berk L.E. Development Through the Lifespan. – Pearson Education.

- 
- 13.00.00 Pedagogika fanlari
  - 13.00.01 Pedagogika nazariyasi. Pedagogik ta'limotlar tarixi
  - 13.00.02 Ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi (sohalar bo'yicha)
  - 13.00.03 Maxsus pedagogika
  - 13.00.04 Jismoniy tarbiya va sport mashg'ulotlari nazariyasi va metodikasi
  - 13.00.05 Kasb-hunar ta'limi nazariyasi va metodikasi
  - 13.00.06 Elektron ta'lim nazariyasi va metodikasi (ta'lim sohaları va bosqichlari bo'yicha)
  - 13.00.07 Ta'limda menejment
  - 13.00.08 Maktabgacha ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi
  - 13.00.09 Ijtimoiy pedagogika
  - 07.00.00 Tarix fanlari
  - 19.00.00 Psixologiya fanlari
  - 01.00.00 Fizika-matematika fanlari
  - 02.00.00 Kimyo fanlari
  - 03.00.00 Biologiya fanlari
  - 09.00.00 Falsafa fanlari
  - 10.00.00 Filologiya fanlari
  - 11.00.00 Geografiya fanlari



# AKTABGACHA VA AKTAB TA'LIMI

**Mas'ul muharrir:** Ramzidin Ashurov

**Ingliz tili muharriri:** Murod Xoliyorov

**Musahhih:** Alibek Zokirov

**Sahifalovchi va dizayner:** Iskandar Islomov

---

**2026. №3(1)**

---

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Maktabgacha va maktab ta'limi" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

"Maktabgacha va maktab ta'limi" jurnali 26.09.2023-yildan  
O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi  
Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan  
№C-5669363 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.  
**Litsenziya raqami: № 136361.**

**Manzilimiz:** Toshkent shahar, Yunusobod tumani  
19-mavze, 17-uy.